

SUN'IY INTELLEKTNING O'QITISH TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Dadaqo'ziyeva Gulbahor

O'zDJTU. 3-kurs talabasi

Ilmiy maslahatchi: Rashidova Gulshoda

O'zDJTU 3-Ingliz fakulteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda globallashtayotgan, XXI asr yoshlari aynan talabalar o'rtasida ko'plab sharoitlar yaratilishga yordam berayotgan, ta'lim tizimida ko'plab yangiliklar amalga oshirishda asosiy vositachi bo'layotgan, o'qituvchilar uchun darslarga interaktiv tarzda yondashishga turtki bo'layotgan, ko'plab tillardagi insonlar bajara olmayotgan kitoblarni o'z istagan tiliga tarjima qilib bera olish imkoniyatiga ega bo'lgan sun'iy intellekt (AI) haqida tahlil qilingan. Bundan tashqari, bu orqali xarqaro munosabatlarni mustahkamlanishiga ko'maklashish, javobsiz jumboqlarga to'liq javob ololishligini taminlaydi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, xalqaro munosabatlar, interaktiv tarzda, globallashtayotgan.

Abstract

This article analyzes artificial intelligence (AI), which today, in our globalizing world, is becoming a key intermediary in implementing many innovations in the education system, especially by creating numerous opportunities for the youth of the 21st century, particularly students. It serves as a major tool for teachers to approach lessons more interactively and provides the ability to translate books—unavailable in many languages—into any desired language. In addition, AI helps strengthen international relations and ensures the ability to find complete answers to previously unanswered questions.

Key words: Artificial intelligence, international relations, interactive approach, globalization.

Kirish

Ilm olish va uni o'rgatish juda ham mashshaqatli ish, kimgadir to'g'ri bilim bera olish ham bu bir san'at. Bu ilmni esa esda qolishi uchun turli hil misollar va materiallardan foydalanib o'tish esa kasbga qiziqishni anglatadi. Hozir esa darslarni ma'lum bir texnologik yo'llar orqali o'tish hech kim uchun yangilik emas. Jumladan "Bugungi kunda texnologiyalar hayotning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda, va ta'lim tizimi bu jarayondan chetda qolmayapti. Ta'lim sohasidagi eng yangi va samarali innovatsiyalardan biri — sun'iy intellekt (SI). Sun'iy intellekt o'zining rivojlanishi bilan ta'lim jarayonlarini yanada samarali, interaktiv va shaxsiylashtirilgan tarzda boshqarishga imkon yaratadi. Ta'lim tizimi nafaqat tinglovchilarning bilimini oshirish, balki o'qituvchilarning samaradorligini oshirish, darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni tinglovchilar va o'qituvchilarning ehtiyojlariga

moslashuvchanlikni ta'minlash orqali ta'lim jarayonini shaxsiylashtirishga olib keladi. Tinglovchilarga o'z qobiliyatlariga mos keladigan materiallarni taqdim etish, baholash tizimlarini avtomatlashtirish, o'qituvchilarni ma'muriy ishlar bilan yuklamaslik, hamda o'qish jarayonini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari ta'lim sifatini yangi darajaga olib chiqadi (Boynazarov 2025)

Yoshlar ta'lim olish uchun bugungi kunda ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda, ular istalganda o'z fikrlash doirasini kengaytirish, o'z bilimlarini mustahkamlash qobiliyatiga ega bo'lib kamol topishmoqda. Bugungi kunda insonlar o'z qiziqtirgan savollariga kitob o'qib javob topish o'rniga internet yordamida osongina javob topa olishyabdi. Shu o'rinda aytish joizki "Hozirgi kunda Google, IBM, Microsoft kabi kompaniyalar AI yordamida ta'lim tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Coursera, Khan Academy va Udemy kabi platformalar ham AI asosida moslashtirilgan kurslar taqdim etmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt yordamida ta'lim tizimi yanada rivojlanishi kutilmoqda. AI algoritmlari yanada aqlli bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Virtual o'qituvchilar va AI yordamida boshqariladigan ta'lim muhitlari an'anaviy o'qitish usullariga muqobil bo'lishi mumkin." (Sobirovna 2025)

Shu o'rinda aytib o'tishim kerakki, talabalar juda ham ko'p AI dan foydalanadi ayniqsa essaylar yozayotgan paytda, maqolalar uchun idea kerak paytda albatta biz bunga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilamiz. Hattoki, bazi paytda undan yaxshiroq maslahatchi ham topa olmay qolamiz. O'qituvchilarga keladigan bo'lsak, ular har bir darsini qiziqarli darsda olib borish uchun, biz talabalarni zeriktirmaslik uchun ko'plab warm up activitylar, ko'plab qiziqarli ma'lumotlar olib biz uchun darsni interaktiv tarzda olib boradilar. Misol uchun Kahoot degan programmadan foydalanmaydigan talaba bo'lmasa kerak. Ko'p demo lessonlar davomida biz mana shu sayt orqali talabalarni bilimini va mavzuga qay darajada tushunganini bilib olishimiz mumkin.

Shuningdek bunga qo'shimcha ravishda sun'iy intellekt vositalarini ta'limda qo'llanilishi bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Bunga quyidagilar kiradi;

1) Shaxsiylashtirilgan o'qitish: AI tizimlari talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan materiallar taqdim etish imkonini beradi. Bu o'qituvchilarning o'z sur'atda va qiziqishlariga mos ravishda o'rganishni taminlaydi. Masalan, biror bir mavzuga mos rasm yoki shablon kerak bo'lsa albatta biz mana shu intellektga murojat qilamiz chunki u ustalik bilan inson aqliga sig'dira olmaydigan darajada bejirim va ko'rkam material topib beradi.

2) Tezkor va to'liq tahlil: Sun'iy intellekt yordamida o'qituvchilar va talabalarga o'quv jarayonidagi natijalarni tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratilib, bu esa ta'lim sifatini yaxshilanishiga yordam beradi. Masalan, universitet darslari 80 minutga asoslangan bo'lishiga qaramay bazi paytlarda talabalarni baholashga o'qituvchini vaqti yetmay qoladi shu payt bizni elektron jo'natgan topshiriqlarimizni bu vosita orqali baholab beraveradi.

4) Virtual yordamchilar: AI asosidagi virtual yordamchilar o'quvchilarga 24/7 o'qish materiallariga kirish imkonini berib, ta'limda interaktivlikni oshiradi. Yana bir misol keltiradigan bo'lsak, bakalavir bosqichidan boshlab juda ham ko'plab topshiriqlar, internetsiz va aynan sun'iy intellekt maslahatisiz bo'lmaydi. kechasimi kunduzimi talabalar istagangancha foydalansa boladi. (Murodova 2025)

“Ta'lim jamiyatning eng muhim sohalaridan biridir. U barcha boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lib, ularga ta'siri juda katta. Shu sababli, ta'lim har qanday to'siqlarga qaramay, jamiyatning barcha qatlamlari uchun zarurdir. Masalan, COVID-19 davrida ta'lim sohasi duch kelgan muammolar aniq bo'lib, ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortdi. Biroq, jamiyatdagi muammolar faqat pandemiyalar bilan cheklanmaydi; ta'limga kirish imkoni, haqiqiy sinflarga yetib borish qiyinchiliklari va moliyaviy muammolar shular jumlasidandir. Ushbu muammolarga ko'plab yechimlar mavjud va kelajakda ham bo'ladi. Ammo ushbu tadqiqot texnologiyadan kelib chiqadigan yechimga – sun'iy intellekt (AI)ga qaratilgan”. Chunki aynan pandemiya paytidan boshlab maktablarda ham muntazam onlayn darslar yo'lga qo'yilgan, hatto masofadan turib dars orqali o'qituvchilarimiz va sinfdishlarimizni ham kuzata olish imkoniyatiga ega bo'lganmiz.

“Talabaning bilimini sinovdan o'tkazish, ma'lumot taqdim etish va o'zaro muloqot qilish qobiliyatiga ega intellektual tizim intellektual repetitorlik tizimi (ITS) deb nomlanadi. Bu talabalarga ma'lumot yetkazishning eng ilg'or usullaridan biridir. O'qituvchi kabi, ITS ham har bir talabaga uning bilim darajasi va ustuvorliklariga mos holda ta'lim beradi. ITS talabalarga quyidagi tarzda dars berishi mumkin. Avval u nazariy ma'lumotlarni misollar bilan tushuntiradi. Keyin esa talabaga savollar beradi. ITS talabalar tomonidan taqdim etilgan javoblarni tushunish va ularning bilim darajasini aniqlash qobiliyatiga ega bo'lib, shu asosda ularga mos materiallarni taqdim etadi va yangi savollar beradi. Talaba ham savollar berishi mumkin, ITS esa tegishli bilim doirasida ularga javob berish yoki muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega.” (Fayaz Ahmad 2021)

Ma'lumotlar berib borayotgan paytda sun'iy intellekt ahamiyati haqida juda ham ko'p misollar bo'ldi end esa u o'zi qachon kirib kelgan va tadqiqotlar o'zi o'qitish tizimida qanchalik foyda bera oladi degan fikrlarini ko'rib chiqamiz. Tadqiqotlarga ko'ra “Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar 1950-yillarda AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar bilan boshlandi. Ushbu ishlarning dastlabki natijalaridan biri harbiy rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan qoidaga asoslangan ekspert tizimlarining yaratilishi bo'ldi. O'rganilgan tizimlarining tijorat maqsadlarida qo'llanilishi 1970-yillarda boshlangan bo'lib, ular quyidagi sohalarida foydalanilgan: mijoz talablariga moslashtirilgan kompyuterlarni loyihalash, og'ir texnika va neft qazib olish operatsiyalarining diagnostikasi, shuningdek, xizmat ko'rsatish mutaxassislari va shaxsiy kredit

xavfini baholovchi tahlilchilar uchun o'z yo'nalish sharoitida qo'llab-quvvatlash tizimlari. (Robert F. Murphy 2019)

Sun'iy intellektdan foydalangan holda biz bilib-bilmay uni kundalik hayotimizda qo'llaymiz. Ko'plab dasturlar sun'iy intellektni o'z ichiga olgan bo'lib, bu ularga qo'shimcha ustunlik beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt xalq orasida juda ham keng doirada qo'llanilib, uni hali yuzaga kelmagan, vazifa bajara olish qobiliyatlari bor ekanligini aniq. Barcha o'qituvchilar va o'quvchilar bu intellektsiz ham dars o'tib o'rgana oladi, ammo zamon mana shu texnologik vositani talab qilayotgan paytda hech kim inkor eta olmay foydalanadi. Nafaqat darsni o'tish uchun kerak, balki ongimizni kerakli informatsiyalar bilan boyitishimda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari inson xohlaydimi yo'qmi hozirgi kundagi o'quv dasturlari, o'rganish va o'rgatish metodlari aynan shu intellektga bog'liq. Shuni aytishim kerakki, o'qitish tizimi uchun ahamiyati o'z navbatida juda ham katta va foydalana olish qobiliyatini ham taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Ahmad, S. F., Rahmat, M. K., Mubarik, M. S., Alam, M. M., & Hyder, S. I. (2021). Artificial intelligence and its role in education. *Sustainability*, 13(22), 12902.
2. Fitria, T. N. (2021, December). Artificial intelligence (AI) in education: Using AI tools for teaching and learning process. In *Prosiding Seminar Nasional & Call for Paper STIE AAS* (pp. 134-147).
3. Gulomova, R. (2024). Embracing cultural classes: unveiling the significance of culture in EFL education. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 665-671.
4. Murodova, M. M. (2025). SUN'IY INTELEKT VOSITASILARINING TA'LIM JARAYONIDAGI AFZALLIKLARI. *Inter education & global study*, (2), 346-354.
5. Murot o'g'li, B. O. (2024). TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELEKTNING AHAMIYATI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(12), 127-130.)
6. Murphy, R. F. (2019). Artificial intelligence applications to support K-12 teachers and teaching. *Rand Corporation*, 10(1), 1-20.
7. Rashidova, G. (2024). Scientific ethics and etiquette of uzbek students in writing. *Проблемы инновационного и интегративного развития иностранных языков в многоязычной среде*, 416-420.
8. Sobirovna, S. Y. (2025). SUN'IY INTELEKT (AI) YORDAMIDA MOSLASHTIRILGAN O'QITISH: INDIVIDUAL O'QUV REJALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(2), 32-36.

9. Rashidova, G., & Khilola, K. (2024). THE ROLE OF INTONATION AND STRESS IN MEANING. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR*, 1(3), 72-75.
10. Abdramanov, S., Muratbaev, N., Joldasova, A., & Sultanova, M. (2025). GENERAL INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF PEDAGOGICAL TRAINING. *Modern Science and Research*, 4(4), 625-629.
11. Abulkosimovna, E. Z. (2022). Synonymous analysis of professional words in English and Uzbek. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(05), 15-22.
12. Gulomova, R. (2020). Sociolinguistic competence of L2 students. *TJE- Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.
13. Alimdjanovna, K. M. (2024). ADVANTAGES OF SCAFFOLDING IN TEACHING READING COMPREHENSION. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 4(5-1), 163-166.
14. Kholbutayeva, S., & Gulshoda, R. (2025). PEDAGOGICAL INNOVATIONS: HOW TO ENHANCE STUDENT ENGAGEMENT THROUGH KAHOOT?. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(7), 141-145.
15. Koppelman, P., & Gulomova, R. (2024). Amerika ingliz tilidagi leksik o'zgarishlarning madaniyatlararo muloqotga ta'siri. *O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 619-624.
16. Zarqarayeva, N., Zaripbayeva, S., & Mamatkulova, F. (2024). Educational technologies in teaching and learning. *O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 207-213.
17. Sultonova, M., & Usmonaliyeva, M. (2024). Pragmalinguistics: exploring the social dynamics of language use. *O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 633-638.
18. SULTONOVA, M. (2024). On the issue of critical thinking.
19. Sultonova, M. (2024, October). Features of Critical Thinking Skills for B1 Level Learners. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 786-790).